

SHARTNOMA № 26/10**Toshkent shahri.****“31 ” 10**

Mirobod tuman mактабгача та'lim bo'limi nomidan Ustav asosida ish yurituvchi mudir R.Z.Ayдинov bundan keyin "Buyurtmachi" deb yuritiladi; bir tomonidan va "AMIGO VISION GROUP" MCHJ nomidan Nizom asosida faoliyat olib boruvchi direktor J.X.Axmedov, bundan keyin "Pudratchi" deb yuritiladi, bundan keyin birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi, ushbu shartnomani quyidagicha haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. "Buyurtmachi" ko'rsatma beradi va "Pudratchi" quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi: Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 127-sonli DMTTni joriy ta'mirlash ishlarni (keyingi o'rinnlarda ishlarni deb yuritiladi) bajaradi.

II. ISHLARNING NARXI VA TO'LOV TARTIBI

2.1. Shartnomaning umumiy summasi: 230 000 000 (Ikki yuz o'ttiz million) so'mni QQS bilan tashkil etadi va ushbu shartnoma uchun loyiha-smeta hujjatlari bilan belgilanadi.

2.2. Mazkur shartnoma tomonlar tarafidan imzolanib, Moliya vazirligi G'aznachilik bo'linmasidan ro'yhatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Buyurtmachi Pudratchiga joriy narxlarda ishlash uchun mazkur shartnomaning umumiy summasining 0% miqdorida avans to'laydi va ushbu avans 69 000 000 (Oltmish to'qqiz million) so'mni tashkil etadi.

2.3. Bajarilgan ishlarni qolgan 70% miqdoridagi to'lovlar Pudratchi tomonidan mazkur shartnomaning 1.1. bandiga muvofiq ishlarni to'liq tugatilganidan keyin va tomonlar tarafidan bajarilgan ishlarni akti imzolaganidan keyin to'lanadi.

2.4. Oldindan to'lov (avans) Pudratchining hisobvarag'iga o'tkazilganidan so'ng, shartnomaning umumiy summasi va bajarilgan ishlarning qiymati shartnoma to'liq bajarilgunga qadar o'zgarishsiz qoladi.

2.5. Shartnomaning qiymati tasdiqlovchi hujjatlar va hisob-kitoblarni taqdim etgan holda xarajatlar o'zgarishiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

2.6. Eng kam oylik ish haqi miqdorini o'zgartirishda, mashina va mexanizmlarni ishlatish narxini o'zgartirishda, transport xarajatlarini o'zgartirishda, elektr va issiqlik energiyasiga tariflarni o'zgartirishda Prezident va boshqa siyosatchilarning qarorlanga muvofiq shartnoma qiymati mutanosib ravishda o'zgartirilishi kerak.

III. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

3.1. Ishlarni bajarish muddati "Pudratchi" hisobvarag'iga oldindan to'lov summasi (avans) kelib tushgan kundan boshlab 40 (qirq) kunni tashkil etadi.

3.2. Ish tugagandan so'ng "Pudratchi" 5 (besh) kun ichida "Buyurtmachi"ga ishni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini taqdim etadi.

3.3. "Buyurtmachi" dalolatnomani Olgan kundan boshlab 5 (besh) kun ichida dalolatnomani imzolashi yoki ishni qabul qilishning asoslantirilgan rad etishini yuborishi shart.

3.4. Asosan rad etilgan taqdirda, Tomonlar "Pudratchi" hisobidan amalga oshiriladigan zaruriy lalomillashtirishlar ro'yxati bilan ikki tomonlama dalolatnomasi tuzadilar.

IV. ISH SIFATI

4.1. "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlarning sifati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tegishli texnik talablar va standartlarga javob berishi kerak.

4.2. "Pudratchi" tomonidan bajariladigan ishlarning (muhandislik tizimlari, asbobuskunalar, materiallar) kafolatli muddati ishlarni tugallangan obyektni qabul Chilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 (o'n ikki) 0' etib belgilanadi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda aybdor taraf O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va 1998-yil 28-avgustdagи "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-1-sonli qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

VI. BOSHQA SHARTLAR

6.1. "Pudratchi" loyiha-smeta hujjatlari asosida ishlarni amalga oshiradi.

- 6.2. Buyurtmachi mazkur shartnomaning II-bo'limiga muvofiq to'lovlarni amalga oshiradi.
- 6.2. Barcha qo'shimchalar, o'zgartirishlar va qd'shimchalar ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Tomonlar tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.
- 6.3. Buyurtmachi Pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda istalgan vaqtida ishning borishini vasifasini tekshirishga haqli.

VII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

7.1. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- Ishlarni tugallashning, mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,
- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish meyorlari va qoidalarini nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga Olib keladigan darajada buzilganda;
- qonun hujjalari muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.2. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'Imagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;
- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;
- qonun hujjalari muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

7.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish obyekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiymatini Pudratchiga to'laydi.

7.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan Tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi Tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

7.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarami, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

7.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjalarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

VIII. FAVQULODDA HOLATLAR (FORS MAJOR)

8.1. Urush, qo'zg'olon, sabotaj, ish tashlashlar, tabiiy ofatlar kabi fors-major holatlari yuzaga kelganda tomonlarning hech biri javobgar bo'Imaydi.

8.2. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liqbajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.3. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtida mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.4. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtida cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'riliшини muhokama qiladilar.

8.5. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

8.6. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi va ularning amal qilish muddati vakolatli organlar tomonidan berilgan guvohnomalardir.

IX. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Tomonlar yuzaga kelgan ziddiyatlari vaziyatlarni muzokaralar yo'lli bilan hal qilish uchun barcha chorałami ko'radilar. Agar kelishuvga erishishning iloji bo'limasa, kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

9.2. Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining qarori har bir Tomon uchun yakuniy majburiyat hisoblanadi.

X. KORRUPSIYAGA KARSHI KURASHISH BO'YICHA SHARTLAR

10.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjalaringa zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar. Shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishlik bermaydi yoki pora, ya'ni Mirobod tuman

Maktabgacha ta'lif bo'limi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mułkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rili shiga qafolat beradi.

XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Mazkur shartnomaga tomonlar tarafidan imzolanib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

11.2. Mazkur shartnomaga bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 (ikki) nusxada tuziladi va tomonlarga saqlash uchun bir nusxdan beriladi.

11.3. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlarinormalari qo'llaniladi.

12. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

"PUDRATCHI"

"BUYURTMACHI"

"AMIGO VISION GROUP" MCHJ

Manzil: "Manzil Toshkent viloyati. Salar Sh.F.Y.

Toshgres-2, 7

Tel./faks + 99897 -703 07 18

h/r 2020 8000 1007 4434 3001

Bank ATB "InFinBank" Toshkent viloyati f-le,

INN 304691824 OROHX 41202 MFO 01056

AMIGO
VISION
GROUP

Direktor

J.X.Axmedov

Mirobod tumani MTB

Sarakul ko'chasi 24 uy

Tel: 291-67-29

r/s: 100022860262737091100251001

XKKM Markaziy bank bosh boshqarma

MFO № 00014 INN 201122919

I/s:23402000300100001010

Mudir _____ R.Z.Aydinov

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR
Code ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	RUSTAMJON ZAYNIDDINOVICH	AYDINOV
Imzolangan sana	28.10.2022 15:39	
Hujjat kodi	TX0435710784	
Hulosa kodi	TI3143635543	





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT SHAHAR ADLIYA BOSHQARMASI
MIROBOD TUMAN ADLIYA BO'LIMI
YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

100072, Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Fitrat ko'chasi, 40 A-uy
el. pochta: mirobod.t-yurmarkaz@adliya.uz

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

ZC8053704464

- 1. Loyihaning turi** : Shartnoma
- 2. Loyihaning nomi**: "AMIGO VISION GROUP" MCHJ va Mirobod tumani MTB o'rtaida pudrat shartnomasi.
- 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**: Mirobod tuman mактабгача та'lim bo'limi tomonidan 31.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Mirobod tuman
yuridik markaz
bosh yuristkonsulti:**



S.I.MUXAMMADIYEV

31.10.2022



"TASDIQLAYMAN"
Mirobod tumani MTB mudiiri
Xarid komissiyasi raisi
R.Z.Aydimov

Mirobod tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim
tashkilotlarining extyojlar uchun ishlari va xizmatlar, butlovchi buyumlar va
ashob-uskunalar xarid kilish bo'yicha "Xarid komissiyasi"ning yigilishi
Bayoni № _____

2022 yil " " oktyabr

Toshkent shahri

KUN TARTIBI:

Mirobod tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi maktabgacha
ta'lim muassasalarining extyojlar uchun ishlari va xizmatlar, butlovchi buyumlar
va ashob-uskunalar xarid kilish bo'yicha "Xarid komissiyasi"ning 2022 yil
05 oktyabrdagi 1/127-soni bayoni asosida qabul qilingan qarorligan ijrosi va ENG
YAXSHI TAKLIFNI TANLASH g'olibini aniqlash to'g'risida,

(R.Z.Aydimov, A.I.Kamalov, N.K.Turdieva, M.A.Gafurova, D.K.Solikova, ...)

Kun taribidagi masala yuzasidan Xarid komissiyasi raisi R.Aydimov so'zga
chiqib, 18.10.2022 yilda 22110012165955-tonli LOT raqami bilan bo'lim tasarrufidagi
127-soni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yozgi bolalar maydonchasini joriy
ta'mirlash uchun <https://etender.uz> tizimiga e'lon berilganligini, kiritilgan takliflar
O'RQ-684-son qonun talablarasi asosida ko'rib chiqilganligini va eng yaxshi taklifni
tanlash g'olibi bilan o'rnatilgan taribda shartnomaga rasmiylashtirilishi lozmligini
takidlab o'tdi.

Bo'lim bosh buxgalteri A.Kamalov mazkur LOT bo'yicha 2 ta taklif kelib
tushganligini va ular quyidagi tadbirkorlar tomonidan kiritilganligini ta'kidlab o'tdi.

1. "AMIGO VISION GROUP" MCHJ

2. "PRESTIJ HAYOT" MCHJ
Komissiya a'zolari elektron tizimdagagi shaxsiy kabinetin orqali eng yaxshi taklifni
tanlash ishtiroychilarining taqdim etgan hujat va ma'lumotlarni ko'rib chiqib, ball
tizimida baholaganligini tasdiqladi.

Xarid komissiyasi raisi R.Aydimov baholash natijalari bo'yicha 2022 yil
25 oktyabr sanasida elektron tizimda 165955-tonli bayonnoma rasmiylashtirilib
muhotama qilish uchun ikki ishlari joylashtirilganligini va tanlash ishtiroychilarini
tomonidan tanlash o'tkazish rasmijatlar bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagaligini ma'lum
qildi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib ishlari va xizmatlar, butlovchi buyumlar va asbob-
uskunalar xarid qilish bo'yicha Xarid komissiyasi

QAROR QILADI:

1. "AMIGO VISION GROUP" MCHJ va maktabgacha ta'lim bo'limi o'tasida
127-soni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yozgi bolalar maydonchasini joriy
ta'mirlash bo'yicha shartnomaga rasmiylashtinilib, g'aznachilik bo'lmasidan ro'yxatdan
o'tkazilsin;

2. "AMIGO VISION GROUP" MCHJ va maktabgacha ta'lim bo'limi o'tasida
127-soni davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yozgi bolalar maydonchasini joriy
ta'mirlash bo'yicha shartnomaga rasmiylashtinilib, g'aznachilik bo'lmasidan ro'yxatdan
o'tkazilsin;
3. Mazkur bayonnomma ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

KOMISSIYA RAISI:
Bo'lim mudiri
R.Z.Aydimov

KOMISSIYA A'ZOLARI:

Bosh hisobchi
A.I.Kamalov

Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya
xizmati boshlig'i
M.A.Gafurova

34-soni maktabgacha
ta'lim tashkiloti direktori
N.K.Turdieva

Davlat xardidari va
shartnomalar bo'yicha mutaxassis
D.K.Solikova